

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.08/2025.27.12.T.03.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT TEXNIKA INSTITUTI

MAMATRAHIMOV OLMOSBEK ABDUSALOMOVICH

**CHIGIT EKISH SEYALKASINING TAKOMILLASHTIRILGAN EKISH
SEKTSIYASI KONSTRUKSIYASINI ISHLAB CHIQISH VA
PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**05.07.01 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya
ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of
philosophy (PhD) on technical sciences**

Mamatraximov Olmosbek Abdusalomovich

Chigit ekish seyalkasining takomillashtirilgan ekish sektsiyasi
konstruksiyasini ishlab chiqish va parametrlarini asoslash..... 3

Маматрахимов Олмосбек Абдусаломович

Разработка конструкции и обоснование параметров
усовершенствованной высевающей секции сеялки для посева
хлопчатника..... 19

Mamatrahimov Olmosbek Abdusalomovich

Development of the design and justification of the parameters of an
improved seeding section of a seed drill for sowing cotton..... 37

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 40

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.08/2025.27.12.T.03.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT TEXNIKA INSTITUTI

MAMATRAHIMOV OLMOSBEK ABDUSALOMOVICH

**CHIGIT EKISH SEYALKASINING
TAKOMILLASHTIRILGAN EKISH SEKTSIYASI KONSTRUKSIYASINI
ISHLAB CHIQISH VA PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**05.07.01 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va
melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining B2024.4.PhD/T5135 raqami bilan ro'yhatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat texnika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb - sahifasida www.andqxai.uz va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kenjaboyev Shukurjon Sharipovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Turdaliyev Voxidjon Mahsudovich
texnika fanlari doktori, professor

Mamadaliyev Mahammadjon Xabibullayevich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.08/2025.27.12.T.03.02 raqamli ilmiy kengashning 2026 yil «22» 08 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 170600, Andijon viloyati, Andijon tumani, Oyjamol qishlog'i, Oliygoch ko'chasi, 1 - uy. Tel.: (+99874) 224 - 02 - 82, faks: (+99874) 224 - 02 - 62, e - mail: andqxai@exat.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti Axborot - resurs markazida tanishish mumkin (66260/1 - raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 170600, Andijon viloyati, Andijon tumani, Oyjamol qishlog'i, Oliygoch ko'chasi, 1 - uy. Tel.: (+99874)224-02-82, faks: (+99874) 224 - 02 - 62, e - mail: andqxai@exat.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «10» 08 kuni tarqatildi.
(2026 yil «10» 07 dagi 153 raqamli reestr bayonnomasi).



A.N. Xudoyarov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy Kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

M.M. Xalilov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy Kengash ilmiy
kotibi, PhD, dotsent

B.M.Shakirov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy Kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda chigit ekish seyalkasining takomillashtirilgan ekish seksiyasi konstruksiyasini ishlab chiqish va parametrlarini asoslash uchun energiya–resurstejamkor texnologiya vositalarini qo‘llash yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida paxta tolasini etishtirish hajmi Xitoyda–6,5 mln. tonna, Hindistonda–6,4 mln. tonna, AQSHda–3,5 mln. tonna, Pokistonda–2,4 mln. tonna, Braziliyada–1,4 mln. tonna, Avstraliyada–1 mln. tonna, Turkiyada–871 ming tonna va Turkmaniston 296 ming tonna paxta tolasini yetishtirilishini tashkil etadi. Ko‘p mamlakatlarda tuproq–iqlim sharoitidan kelib chiqib chigit ekish seyalkasi ekish seksiyasi konstruksiyasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni taqazo etadi. Shu jihatdan paxta yetishtirishga asosiy sabab g‘o‘za qimmatli texnik ekin bo‘lganligi uchun, undan 65 dan ortiq turdagi mahsulotlar ishlab chiqariladi. Shuning uchun chigit ekish seyalkasidan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanmoqda¹.

Jahonda paxtachilik xalq xo‘jaligining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston respublikasida paxta hosildorligini oshirishga qaratilgan chora – tadbirlar majmuasida texnologik operatsiyalarni mexanizatsiyalashtirish va texnika vositalarini takomillashtirish jarayonida yangi ilmiy–texnikaviy yechimlarni ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy–tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, chigit ekish operatsiyasini takomillashtirish yo‘llaridan biri an‘anaviy ekishga nisbatan bir qator afzalliklarga ega bo‘lgan aniq miqdorda uyalab ekish usulidir. Bu usul urug‘ sarfini kamaytirib, o‘simliklarni maydon bo‘ylab bir me‘yorda joylashtirilishni ta‘minlaydi hamda nihollarni yaganalash uchun sarflanadigan mehnat harajatlarini tejash imkonini beradi. Biroq, chigitni har bir uyaga aniq miqdorda uyalab ekish usullari ilmiy asoslanmaganligi sababli hozirgacha keng qo‘llanilmayapti. Hozirgi kunda ekish apparatlarini takomillashtirish va urug‘ tayyorlash sifatini oshirishga alohida e‘tibor berish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Respublikamiz qishloq xo‘jaligida ham energiya va resurslarni tejash, qishloq xo‘jaligi ekinlarini zamonaviy texnologiyalar asosida yetishtirish bo‘yicha keng qamrovli chora – tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2022 – 2026 – yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “... qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 barobar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘sishini kamida 5 % ga yetkazish, eksportbop mahsulotlar yetishtirish hamda meva-sabzavotchilikni rivojlantirish va issiqxonalarni 2 barobar ko‘paytirib, eksport salohiyatini yana 1 mlrd AQSh dollarga oshirish, ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlar ko‘rsatish tizimini takomillashtirish, aholi tomonidan tomorqalardan samarali foydalanishi uchun sharoitlar yaratish”² vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni bajarishda, jumladan O‘zbekiston iqlim sharoitlariga mos bo‘lgan zamonaviy energiya va resurstejamkor chigit ekish seyalkalarini ishlab chiqish va takomillashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

¹<https://kun.uz/news/2021/09/18/paxta-yetishtirishda-dunyo-gigantlari-ozbekiston-nechanchi-orinda>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60 son Farmoni

Mazkur dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019–yil 31 - iyuldagi «Qishloq xo'jaligi mashinasozligini jadal rivojlantirish, agrar sektorni qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga oid chora - tadbirlar to'g'risida»gi PQ - 4410–son, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021–yil 21 - dekabrda «Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'laqonli ta'minlashga doir chora–tadbirlar to'g'risida»gi 766 – sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 - yil 6 - oktabrdagi «Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni moliyaviy qo'llab - quvvatlashning qo'shimcha chora–tadbirlari to'g'risida»gi PQ–387 - son qarorlarida asosan paxta yetishtirish bo'yicha hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy–huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanining asosiy ustivor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustivor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Qishloq xo'jalik urug'larini ekish, urug'larni aniq me'yorlarda ekish apparatlari va seyalkalarning texnologik ish jarayonlarini o'rganish hamda konstruksiyalarini yaratish, ish organlarining parametrlarini asoslash bo'yicha xorijda Rossiya federatsiyasi olimlari L.S.Golishev, Ye. A. Belyayev, V. F. Korneyev V. V. Vasilenko, G. M. Buzenkov, V. A. Sokolov, I. I. Zaytsev, D. V. Kvitkin, Ye. T. Rusayeva, N. A. Vatolin, Ukrainalik olimlar Yu. F. Kucherenko, V. P. Chichkin, Qozonlik olim B. M. Osipov, Samaralik olimlar V. Kofeynikova, N. P. Kryuchin, Belarusiyalik olimlar A. N. Shirmanov, A. Yu. Tirnov, P. Ya. Lobachevskiy, Xitoylik olimlar X. L. Xia, V. Zang, Bolgariyalik olim I. P. Gershkul, Kanadalik olimlar V. G. Siliveystrov, A. S. Djasheyev, F. B. Dayk, V. N. Levenes va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Qishloq xo'jalik urug'larini ekish uchun seyalkalardagi texnologik ish organlarining parametrlarini asoslash va konstruksiyalarini yaratish bo'yicha Respublikamizda esa G. M. Rudakov, S. P. Chirsov, P. Yushin, Ye. I. Ponamarev, A. To'xtaqo'ziyev, B. Xudoyarov, A. Xudoyarov, V. M. Turdaliyev, A. N. Semenov, A. Xadjiev, A. A. Abduraxmanov, K. A. Kunduzov, F. Alimova, A. Tolibayev, A. H. Qoraxanov, A. G. Botirov va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Bu tadqiqotlar asosida yaratilgan mashina va qurilmalar tarmoq ishlab chiqarishida muayyan ijobiy natijalarga erishilgan holda qo'llanilib kelinmoqda. Ammo, bir brusli seyalkaning uyalovchi apparati diskli va kurakchali ish organlari bilan jihozlangan, O'zbekiston tuproq - iqlim sharoitga mos chigitlarni aniq agrotexnik talablar darajasida ekadigan seyalka yaratish ustida tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy - tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Andijon davlat texnika instituti ilmiy - tadqiqot ishlari rejasi doirasida

bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi chigit ekish seyalkasining takomillashtirilgan ekish seksiyasi konstruksiyasini ishlab chiqish va parametrlarini asoslash yo'li bilan ekish aniqligi va ish unumini oshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qishloq xo'jaligi ekinlarining urug'larini aniq ekadigan ekish apparatlari va seyalkalari, ekish texnologiyalarining texnika vositalariga oid ma'lumotlar hamda ilmiy - tadqiqot ishlarini tahlil etish;

chigitni aniq ekishga mo'ljallangan mexanik seyalkalarga qo'yiladigan agrotexnik talablarni tahlil etish va tadqiqot ob'ektining konstruktiv sxemasi va texnologik ish jarayonini ishlab chiqish;

tuksiz chigitni uyalab aniq ekadigan mexanik ekish apparatining parametrlarini aniqlash imkonini beradigan matematik modellarni ishlab chiqish va analitik ifodalarni olish;

tuksiz chigitni uyalab aniq ekadigan mexanik ekish apparatining sifat va energetik ko'rsatkichlarini aniqlash bo'yicha eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish;

takomillashtirilgan mexanik ekish apparatining tajriba nusxasini tayyorlash va uning laboratoriya - dala sinovlarini o'tkazish;

takomillashtirilgan mexanik ekish apparatlari bilan jihozlangan seyalkaning texnik va iqtisodiy ko'rsatkichlarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida chigit ekish seyalkaning ekish seksiyasi uyalovchi apparatining kurakchali va diskli ish organlari hamda ularni chigit bilan o'zaro ta'sirlashish jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmeti seyalkaning uyalovchi apparatining kurakchali va diskli ish organlarini chigit bilan o'zaro ta'sirlashish jarayonini ifodalovchi analitik bog'lanishlar va matematik modellar hamda seyalkaning agrotexnik ko'rsatkichlarini texnologik va konstruktiv parametrlariga bog'liq ravishda o'zgarish qonuniyatlaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida oliy matematika, nazariy mexanika, matematik statistikaning qonun va qoidalari, eksperimentlarni matematik rejalashtirish va tenzometriya usullari hamda mavjud me'yoriy hujjatlarda belgilangan usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kurakchali va diskli ish organlari bilan jihozlangan chigit ekish apparatining konstruktiv sxemasi ishlab chiqildi va uning texnologik ish jarayoni asoslandi;

seyalka uyalovchi apparatining kurakchali va diskli ish organlarini chigit bilan o'zaro ta'sirlashish jarayonlarini ifodalovchi matematik modellar, uning parametrlarini aniqlash imkonini beradigan analitik ifodalar olingan;

ekish apparati ish organlarining ekish aniqligi bo'ylama masofadagi uyalar soni, uyalar orasidagi masofa hamda uyadagi chigitlar sonini agrotexnik talablarga mosligi orqali baholangan;

bitta uyadagi chigitlar soni, chigit uyalar orasidagi bo'ylama masofa va chigit uyalarining uzunligi seyalkaning uyalovchi apparati, kurakchali va diskli ish organlarini parametrlariga bog'liq ravishda o'zgarish qonuniyatlari, empirik

formulalar va regressiya tenglamalari yordamida aniqlangan;

seyalka uyalovchi apparati kurakchali va diskli ish organlarining maqbul qiymatlari uning talablar darajasidagi agroteknik ish ko'rsatkichlari minimal energiya sarflab ta'minlanishi shartidan aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston tuproq - iqlim sharoitiga mos hamda samarali texnik yechim va texnologik ish jarayoniga ega bo'lgan chigit ekish seyalkasining ekish seksiyasi bilan jihozlangan chigitni uyalab va aniq ekadigan ekish apparati ishlab chiqilgan;

Tavsiya etilgan ekish seksiyasi bilan jihozlangan ekish apparati chigitni talab darajasida aniq ekishi natijasida uyalarda chigitni ratsional joylashuviga va aniq uyalarni shakllantirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarning samarali usullar va vositalardan foydalangan holda o'tkazilganligi, chigitni uyalab va aniq ekadigan ekish apparati parametrlarini nazariy jihatdan asoslashda oliy matematika, nazariy mexanikaning asosiy qoida va usullariga amal qilinganligi, tajribalar natijalariga matematik statistika usullari bilan ishlov berilganligi, nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarining o'zaro mosligi, bajarilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan chigit ekish seyalkasining ekish seksiyasi bilan jihozlangan seyalka dala sinovlarining ijobiy natijalari va amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati chigitlarni uyalab aniq ekadigan mexanik seyalkasiekish apparatining talablar darajasidagi ish sifatini ta'minlovchi parametrlarini asoslanganligi hamda olingan matematik modellar va analitik bog'lanishlardan boshqa shunga o'xshash qurilmalarining parametrlarini asoslashda qo'llash mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati asoslangan parametrlarga ega uyalovchi apparat diskli va kurakchali ish organlar bilan jihozlangan mexanik ekish apparati qo'llanilganda urug'larni sifatli ekilishi, ularni erta va bir tekis undirib olinishi, nihollarning yaxshi rivojlanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Chigitlarni uyalab aniq ekadigan mexanik ekish apparatini takomillashtirish va uning parametrlarini asoslash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

chigitlarni uyalab aniq ekish texnologik jarayoni bajarilishining sifat ko'rsatkichlarini baholashga dastlabki talablar hamda chigit ekish seyalkasining ekish seksiyasi uyalovchi apparati diskli va kurakchali ish organlari bilan jihozlangan mexanik ekish apparat konstruksiyasini loyihalash uchun texnik topshiriq ishlab chiqilgan. (O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi uzuridagi qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazining 2024-yil 21-dekabr 05/04-04-686-son ma'lumotnomasi). Natijada chigitlarni uyalab aniq ekadigan takomillashtirilgan mexanik seyalka ekish apparatining konstruksiyasi yaratilgan.

Ishlab chiqilgan mexanik ekish apparati bilan jihozlangan seyalkani tajriba nusxasi Namangan viloyati, Chortoq tumani "Olimjon-Abduvali -Abdug'ani" va "Buvahon-Robahon fayzi" fermer xo'jaliklarida joriy etilgan (O'zbekiston

Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi xuzuridagi qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazining 2024-yil 21-dekabr 05/04-04-686-son ma'lumotnomasi). Natijada tuksiz chigitlarni uyalab aniq ekish uchun taklif etilgan ekish apparatida bilan jihozlangan seyalka qo'llanilganda mehnat va ekspluatatsion xarajatlar sarfini kamaytirishga erishilgan;

seyalkaning ekish apparatini ishlab chiqarishni o'zlashtirish uchun loyiha - konstruktorlik hujjatlari (texnik topshiriq va chizmalar) "BMKB - Agromash" AJ da loyihalash jarayoniga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024 - yil 21 - dekabr 05/04 - 04 - 686 - son ma'lumotnomasi). Natijada tuksiz chigitni uyalab aniq ekadigan takomillashtirilgan mexanik ekish apparatining sanoat nusxasini ishlab chiqarish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy - amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 109 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyasi taraqqiyotining ustuvor yo'nalishiga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, ishning aprobatsiya natijalari, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Vazifaning qo'yilishi va tadqiqot ishining maqsadi**" deb nomlangan birinchi bobida o'tkazilgan tahlillardan kelib chiqqan holda ushbu 00000diskli va kurakchali ish organlarining talab darajasidagi ish sifatini ta'minlaydigan turi va parametrlarini asoslash yo'li bilan ekish aniqligi va is unumini oshirishdan iboratligi asoslangan. Quyilgan maqsadga erishish uchun quyidagi tadqiqot vazifalari belgilandi:

Qishloq xo'jaligi ekinlarining ekadigan ekish apparatlari va seyalkalari, ekish texnologiyalari va texnika vositalariga oid ma'lumotlar hamda ilmiy - tadqiqot ishlarini tahlil etib chigit ekish seyalkasining ekish seksiyasi konstruksiyalari bo'yicha mamlakatimiz hamda xorijda olibborilgan ilmiy - tadqiqot ishlari tahlil etilgan hamda tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning "**Paxtachilik seyalkasi takomillashtirilgan ekish seksiyasining tuzilishi va ish jarayoni**" deb nomlangan ikkinchi bobida texnika

ekinlarini urug‘lari ekish agregatlarining ekish seksiyasida amalga oshiriladi. Ekish seksiyasini takomillashtirishni ko‘rib chiqamiz (1 - rasm).



1 - bunker; 2-saqlovchi halqa;
3-rostlovchi vint; 4-ekish halqasi;
5-o‘q; 6-yulduzcha; 7-korpusi;
8-konussimon yulduzcha;
9-uyalovchi apparat qopqog‘i;
10-uyalovchi apparatini ekish kurakchalari; 11-vertikal o‘q;
12-uyalovchi apparat korpusi;
13-etaklanuvchi yulduzcha;
14 - oraliq valnimahkamlash halqasi;
15-yetaklovchi yulduzcha;
16-yetaklovchi yulduzchani mahkamlash halqasi;
17-oraliq val; 18-oraliq disk;
19-maxsus bolt.

1 - rasm. Takomillashtirilgan chigitni uyalab ekish apparati konstruksion sxemasi

Chigit seyalkasiga diskli ekish apparatini o‘rnatilishi chigit ekishda bir muncha avfzalliklarni beradi.

Buning uchun uyalovchi apparat korpusini gardishiga ekish darchasini joylashishini o‘zgartirib, ekish seksiyasiga nisbatan 30° burchak ostida o‘rnatiladi. Bunda uyalovchi apparatni chigit qabul qilish darchasi ekish apparati qaytargichi joylashgan darchaga yaqin o‘rnatiladi.


Tuksizlantirilgan chigit ekish apparatidan itargich va yoysimon ekish novi orqali ekkich hosil qilgan ariqchaga to‘g‘ridan - to‘g‘ri punktirlab ekiladi. Bu apparat bilan ekish seksiyasini konstruksiyasi tufayli uyalab ekish imkoniyati yo‘q.

Konstruksiyaga konussimon uyalovchi apparat o‘rnatiladi, tushish darchasi esa ekkichning jag‘i o‘rtasiga o‘rnatiladi. Ekish jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi: Ekish apparati bunkeridagi tuksizlantirilgan urug‘ itargich va qabul qilish darchasi orqali parrak uylariga tushadi va uyachalar bilan birgalikda, uyalovchi apparat korpusi ichida aylana bo‘ylab xarakatlanib darcha orqali ekkich hosil qilgan ariqchaga ma‘lum vaqt ichida og‘irlik kuchi ta‘sirida erkin tushadi, ekkich ko‘muvchi organlari uni ko‘madi, natijada ekish jarayoni bajariladi.

Chigitning uyalovchi apparat kurakchasi sirtiga nisbatan joylashishi quyidagi holatda bo‘lishi mumkin:

- a) chigit kurakchaning ichki chetida joylashgan;
- b) kurakcha bilan birgalikda korpus tubi va devori bo‘ylab joylashadi;
- v) kurakcha sirtidan tushib, ekkich bo‘shlig‘ida erkin xarakat qiladi.

Uyalovchi apparatning kurakchasida joylashgan o‘rniga qarab chigit unda turlicha harakat qilishi mumkin. Chigit kurakchaning ichki chetida va unga yaqin joylashgan (2 - rasm).



2 - rasm. Chigit kurakchani ichki chetida va unga yaqin holatda joylashganda chigitga ta'sir etuvchi kuchlarning sxemasi

U quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi: Chigit kurakchani ichki chetida va unga yaqin joylashgan, bunda unga quyidagi kuchlar ta'sir etadi: mg – og'irlik kuchi, N ; $mr\omega$ – markazdan qochma kuch, N ; $f_1mg\cos\alpha$ – uyalovchi apparat korpusining tubiga ishqalanish kuchi, N ; $f_1f_2mg\cos\alpha$ – kurakchani ishchi sirtiga ishqalanish kuchi, N ; $2m\omega v_2$ – Kariolis kuchi, N ; $2f_2m\omega v_2$ – Kariolis kuchidan kurakchani ishchi sirtida hosil bo'ladigan ishqalanish, bunda m – chigitning massasi, g ; g – erkin tushish tezlanishi, m/s^2 ; r – uyalovchi apparatning aylanish markazidanchigit gacha bo'lgan radial masofa, m ; ω – uyalovchi diskning burchak

tezligi, rad/s ; f_1 , f_2 – chigitning uyalovchi apparat korpusining tubi va kurakchasiga ishqalanish koeffitsientlari; α – uyalovchi diskni ko'ndalang - tik tekislikda gorizontga nisbatan o'rnatilish burchagi, $^\circ$; V_2 – chigitni kurakchani ishchi sirti bo'ylab harakatlanish tezligi, m/s .

Yuqorida keltirilgan kuchlarning ta'sirida chigit kurakchani ishchi sirti bo'ylab uning ichki chetidan tashqi chetiga, ya'ni X o'qi bo'yicha harakatlanadi. Bu harakatning differentsial tenglamasini tuzamiz. U quyidagi yakuniy ko'rinishga ega bo'ladi:


$$X = \left\{ r_0 + \frac{g[1 - f_1(1 + f_2)]\cos\alpha}{\omega^2} \right\} \times \left\{ \frac{1}{2\sqrt{1 + f_2^2}} \left[\left(\sqrt{1 + f_2^2} - f_2 \right) \times \right. \right. \\ \left. \left. \times e^{-\omega \left(f_2 + \sqrt{1 + f_2^2} \right) t} + \left(f_2 + \sqrt{1 + f_2^2} \right) e^{-\omega t \left(f_2 - \sqrt{1 + f_2^2} \right)} \right] - 1 \right\} \quad (1)$$

$$\dot{X} = \left\{ r_0 + \frac{g[1 - f_1(1 + f_2)]\cos\alpha}{\omega^2} \right\} \times \left\{ \frac{\omega}{2\sqrt{1 + f_2^2}} \times \left[e^{-\omega \left(f_2 + \sqrt{1 + f_2^2} \right) t} - e^{-\omega t \left(f_2 - \sqrt{1 + f_2^2} \right)} \right] \right\} \quad (2)$$

Bu ifodalarning tahlili shuni ko'rsatadiki chigitning kurakcha bo'ylab ko'chish masofasi va tezligi kurakcha chetining radiusiga, uyalovchi diskni ko'ndalang - tik tekislikda gorizontga nisbatan o'rnatilish burchagiga, uyalovchi diskning burchak tezligiga hamda chigitning uyalovchi disk korpusining tubiga va kurakchani ishchi sirtiga ishqalanish burchaklariga bog'liq ekan.

3 - rasmda $f_1 = 0,44$ va $f_2 = 0,41$ qabul qilinib r_0 , α va ω ning turli qiymatlarida $X = f(t)$ va $\dot{X} = f(t)$ grafik bog'lanishlar qurilgan. Ulardan ko'rinib turibdiki r_0 , α va ω ni ortishi X va $\dot{X}$ ni ortishiga olib kelar ekan.

(2) dan foydalanib uyalovchi diskning chigitni uyalovchi apparat korpusining tubi va uning kurakchasi ishchi sirti bo'ylab sirpanishini ta'minlaydigan burchak tezligining minimal qiymatini aniqlash mumkin. Buning uchun quyidagi shart bajarilishi lozim



3 - rasm. $r_0(a)$, $\alpha(b)$ va $\omega(v)$ larning turli qiymatlarida X ni t ga bog'liq ravishda o'zgarish grafiklari


$$r_0 - \frac{g[1-f_1(1+f_2)]\cos\alpha}{\omega^2} > 0 \quad (3)$$

Bu ifodani ω uchun yechib, quyidagi ifodani olamiz

$$\omega_{min} > \sqrt{\frac{g[1-f_1(1+f_2)]\cos\alpha}{r_0}} \quad (4)$$


Bu ifodaga $g=9,81m/s^2$, $f_1=0,44$, $f_2=0,41$, $\alpha=15^\circ$ va $r_0=0,068$ qiymatlarini qo'yib, chigitni uyalovchi apparat korpusining tubi va kurakchasining ishchi sirti bo'ylab sirpanishini ta'minlashi uchun uyalovchi diskning burchak tezligi kamida $7,5 rad/s$ bo'lishi lozimligini aniqlaymiz.

4 - rasmda (6) ifodadan foydalanib ω_{min} ni α va r_0 ga bog'liq ravishda o'zgarish grafiklari qurilgan. Ulardan ko'rinib turibdiki, α va r_0 ni ortishi ω_{min} ni kamayishiga olib keladi.



4 - rasm. ω_{min} ni $\alpha(a)$ va $r_0(b)$ ga bog'liq ravishda o'zgarish grafiklari

Chigit uyalovchi apparat korpusining devori va tubidan tushib, havoda erkin harakat qilishga o'tadi va bir muncha muddatdan keyin soshnik tomonidan hosil qilingan ekish egatinig tubiga kelib tushadi (5 - rasm).



Chigitni har qanday vaqtdagi absolyut uchish tezligi

$$V_a = \sqrt{\dot{X}^2 + \dot{Z}^2} = \sqrt{V_m^2(1+\lambda)^2 + (gt)^2} \quad (5)$$

Bu tezlikni yo'nalishi quyidagi ifoda bo'yicha aniqlanadi

$$\beta_a = \arctg \frac{\dot{X}}{\dot{Z}} = \arctg \frac{V_m(1-\lambda)}{gt} \quad (6)$$

5 - rasm. Chigitni uyalovchi apparat korpusining devori va tubidan tushgandan keyingi harakatini tadqiq etish sxemasi


(5) va (6) ifodalardagi t ni o'rniga uni (6) ifoda bo'yicha qiymatini qo'ysak, chigitni ekish egatining tubiga urilish tezligi va burchagi kelib chiqadi ya'ni

$$V_a = \sqrt{V_m^2(1+\lambda)^2 + 2g(H-r_1\sin\alpha)} \quad (7)$$

$$\text{va} \quad \beta_a = \arctg \frac{V_m(1-\lambda)}{\sqrt{2g(H-r_1 \sin \alpha)}}. \quad (8)$$

$V_m = 2 \text{ m/s}$, $\lambda = 0,5$, $H = 0,1 \text{ m}$, $r_1 = 0,084 \text{ m}$ va $\alpha = 15^\circ$ qabul qilib, (7) va (8) ifodalar bo'yicha o'tkazilgan hisoblashlar chigitni ekish egatining tubiga urilish tezligi $3,24 \text{ m/s}$ va urilish burchagi esa 46° ni tashkil etishini ko'rsatdi.

6 - rasmda keltirilgan grafik bog'lanishlardan ko'rinib turibdiki α burchakni ortishi V_a ni kamayishiga va β_a ni esa ortishiga olib keladi. Bular esa o'z navbatida chigitni ekilish sifatini ortishiga, ya'ni urug'lar uyasi uzunligini kamayishiga olib keladi.



6 - rasm. V_a (a) va β_a (b) ni α ga bog'liq ravishda o'zgarish grafiklari

Dissertatsiyaning “Eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish usullari va natijalari” deb nomlangan uchinchi bobida takomillastirilgan tuksiz chigitlarni ekadigan bir brusli mexanik seyalka ekish apparati parametrlarining maqbul qiymatlarini asoslash bo'yicha o'tkazilgan eksperimental tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.

Eksperimental tadqiqotlarda TTZ - 80.11 traktori bilan agregatlangan tuksiz chigitlarni ekadigan bir brusli mexanik ekish apparatli seyalkaning dala tajribalari o'tkazildi. Tajribalar o'tkazilishidan avval dala tuprog'ining namligi, qattiqligi va zichligi qatlamlar bo'yicha o'rganildi.

Tajribalarni o'tkazishdan oldin 0 - 5, 5 - 10 va 10 - 15 cm qatlamlardagi tuproqning namligi, qattiqligi va zichligi hamda tuproqning uvalanish sifati quyida ta'kidlangan tadqiqot usullari bo'yicha aniqlandi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ekish apparati uyalovchi diskning ko'ndalang - tik tekislikda gorizontga nisbatan o'rnatilish burchagini 5 gradusdan 35 gradusgacha ortirilganda bitta uyadagi chigitlar soni transportyor tasmaning har ikkala harakat tezliklarida to'g'ri chiziqli qonuniyat bo'yicha kamaydi. Ya'ni ushbu burchak 5 gradusdan 35 gradusgacha ortganda har ikkala harakat tezligida mos ravishda 5,14 donadan 3,14 donagacha, 5,81 donadan 3,54 donagacha kamaydi.

Ekish apparati uyalovchi diskning ko'ndalang-tik tekislikda gorizontga nisbatan o'rnatilish burchagini ortirilganda bitta uyadagi chigitlar soni transportyor tasmaning har ikkala harakat tezliklarida to'g'ri chiziqli qonuniyat bo'yicha kamaydi. Harakat tezliklari o'zgarib burchak ortganda har ikkala harakat tezligida mos ravishda 5,14 donadan 3,14 donagacha, 5,81 donadan 3,54 donagacha kamaydi. Tajribalardan olingan ma'lumotlar 1 - jadvalda keltirilgan.

1 - jadval

Ekish apparati uyalovchi diskning ko'ndalang - tik tekislikda gorizontga nisbatan o'rnatilish burchagini asoslash bo'yicha tajriba natijalari

№	Ko‘rsatkichlarning nomi	Ekish apparati o‘rnatilish burchagi							
		5		15		25		35	
		Ko‘rsatkichlarning qiymati							
1	Transportyor tasmaning harakat tezligi, m/s	1,66	2,22	1,66	2,22	1,66	2,22	1,66	2,22
2	Bitta uyadagi chigitlar soni n_{ch} , dona	5,14	5,81	4,56	5,02	3,76	4,21	3,14	3,54
3	Chigit uyalari orasidagi L_b bo‘ylama mosofa: $M_o'r$, cm	22,32	23,31	14,51	15,18	13,12	14,06	11,16	12,84
	$\pm\sigma$, cm	1,21	1,36	1,67	1,87	1,89	2,21	2,06	2,31
4	Chigit uylarining uzunligi: L_u $M_o'r$, cm	1,42	1,52	2,46	2,87	3,14	3,31	3,18	3,56
	$\pm\sigma$, cm	1,64	1,81	1,03	1,23	0,85	0,91	0,81	0,88

Buni quyidagicha izohlash mumkin, ekish apparati uyalovchi diskning ko'ndalang-tik tekislikda gorizontga nisbatan o'rnatilish burchagi ortishi bilan chigitning tushish balandligi va tezligi kichik bo'lganligi chigitni uchish vaqti va masofasini kamayishiga va uning ekish aniqligini oshishiga olib keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, ekish aniqligi oshishi, ya'ni bitta uyadagi chigitlar soni agrotexnik talablar darajasida bo'lishi, chigit uyalari orasidagi bo'ylama masofa hamda urug'lar uyasi uzunligini kamayishi chigitni ekilish sifatini ortishi uchun uning ekish apparati uyalovchi diskning ko'ndalang-tik tekislikda gorizontga nisbatan o'rnatilish burchagi 15–25° oralig'ida bo'lishi lozim.

Dissertatsiyaning **“Tishli rostlovchi disk uylarining sonini uning ish ko'rsatkichlariga ta'sirini o'rganish”** deb nomlangan uchinchi bobning bu qismida tuksiz chigitlarni iekadigan bir brusli mexanik seyalka urug' bunker tishli rostlovchi disk uylarining soni 4 dona interval bilan 8, 12, 16 va 20 donagacha o'zgartirilib, eksperimenta ltadqiqotlar o'tkazildi.

7 - rasmda tuksiz chigitlarni ekadigan bir brusli mexanik seyalka ekish apparati rostlovchi diskni ko'ndalang - tik tekislikda gorizontga nisbatan o'rnatilish burchagi 20°, kurakchali miqdorlagich o'rnatilgan ekish apparati o'qining aylanishlar soni 450 ayl/min hamda transportyor tasmaning harakat tezligi




a) rostlovchi tishuyalari soni 8 ta; b) rostlovchi tish uyalari soni 12 ta; c) rostlovchi tish uyalari soni 16 ta; d) rostlovchi tish uyalari soni 20 ta;

7 - rasm. Turli xil tayyorlangan rostlovchi tishli disklar

1,66 va 2,22 m/s etib belgilab olindi. Tajribalar jarayonida bunker ostida ekish apparatidagi turli xil kurakchali rostlovchi disklar tasvirlangan.

Tishli rostlovchi disk uylarining sonini 8 tauyali rostlovchi diskdan 20 tauyali rostlovchi diskga ortirilganda bitta uyadagi chigitlar soni transportyor

tasmaning har ikkala harakat tezliklarida mos ravishda egri chiziqli qonuniyat bo'yicha ortib bordi. Bunda tishli rostlovchi disk uyalari soni 8 ta uyali rostlovchi diskdan 12 ta uyali rostlovchi diskga ortganda har ikkala harakat tezligida mos ravishda 3,05 donadan 4,85 donagacha, 3,56 donadan 5,02 donagacha keskin oshdi. Rostlovchi disk uyalari soni 12 ta uyali rostlovchi diskdan 20 ta uyali rostlovchi diskga ortganda esa bitta uyadagi chigitlar soni deyarli o'zgarishsiz qoldi. Ya'ni har ikkala harakat tezligida mos ravishda 4,85 donadan 5,36 donagacha, 5,02 donadan 5,56 donagacha ortishi kuzatildi. Buni quyidagicha izohlash mumkin, rostlovchi disk uyalari soni ortishi urug' o'tkazgich orqali tushuvchi urug'lar soni ortadi va buning natijasida bitta uyadagi chigitlar sonini ko'payganini ko'rishimiz mumkin 8-rasmda tasvirlangan 1. $M_{o'r} = f(L_b, L_u)$; 2. $\pm\sigma = f(L_b, L_u)$.




8 - rasm. Bitta uyadagi chigitlar soni(n_{ch}), chigit uyalari orasidagi bo'ylama masofa (L_b) va uning o'rtacha kvadratik chetlanishi ($\pm\sigma$), chigit uylarining uzunligi (L_u) va uning o'rtacha kvadratik chetlanishi ($\pm\sigma$)ni tishli uyalovchi disk uylarining soni (n_t) ga bog'liq ravishda o'zgarish grafiklari

Yuqorida keltirilgan grafik bog'lanishlar va jadvaldagi ma'lumotlar tahlilidan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, chigit uyalari orasidagi bo'ylama masofa hamda chigit uylarining uzunligi agrotexnik talablar darajasida, ularning o'rtacha kvadratik chetlanishi minimal qiymatlarda chigitni agrotexnik talablar darajasida ekishi seyalkasi urug' bunkerini tishli rostlovchi disk uylarining soni kamida 12 dona bo'lishi talab etiladi.

Dissetatsiyaning "Ekish apparati kurakchali miqdorlagichning kurakchalari sonini uning ish ko'rsatkichlariga ta'sirini o'rganish" deb nomlangan uchinchi bobning 9 - rasmda qismida tuksiz chigitlarni ekadigan bir brusli mexanik seyalka ekish apparati kurakchali miqdorlagichning kurakchalari soni 2 dona interval bilan 6, 8, 10 va 12 dona gacha o'zgartirilib, tadqiqotlar o'tkazildi. Bunda tuksiz chigitlarni ekadigan bir brusli mexanik seyalka ekish apparati uyalovchi diskni ko'ndalang– tik tekislikda gorizontga nisbatan o'rnatilish burchagi 20° , kurakchali miqdorlagich o'rnatilgan ekish apparati o'qining

aylanishlar soni 450 ayl/min hamda transportyor tasmaning harakat tezligi 1,66 va 2,22 m/s etib belgilab olindi. Tajribalarda ekish apparatiga turli xil kurakchali miqdorlagichlarni o'rnatilish yo'li bilan olib borildi.



9-rasm. Kurakcha bilan jihozlangan ekish apparati kurakchali miqdorlagich

Buni quyidagicha izohlash mumkin, ekish apparati kurakchali miqdorlagichning kurakchalari soni ortishi bilan bitta uyadagi chigitlar soni kamayib seyalkaning chigit o'tkazish novidan tushishvaqti ortishi natijasida chigit uyalari orasidagi masofa kamaygan.

2 - jadvalda olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, ekish apparati kurakchali miqdorlagichning kurakchalari sonini 6 donadan 12 donaga ortirilganda bitta uyadagi chigitlar soni transportyor tasmaning har ikkala harakat tezliklarida mos ravishda egri chiziqli parabola ko'rinishida kamaydi. Ya'ni kurakchalar soni 6 donadan 10 donaga ortganda har ikkala harakat tezligida mos ravishda 5,86 donadan 3,55 donagacha, 5,08 donadan 3,16 donagacha keskin kamaydi. Kurakchalar soni 10 donadan 12 donaga ortganda esa bitta uyadagi chigitlar soni deyarli o'zgarmay qoldi. Ya'ni har ikkala harakat tezligida mos ravishda 3,55

2 – jadval.

Turli xil kurakchalar bilan jihozlangan ekish apparati kurakchali miqdorlagichlarining qiymatini asoslash bo'yicha tajriba natijalari

№	Ko‘rsatkichlarning nomi	Turli xil miqdordagi kurakchali miqdorlagichlar							
		6		8		10		12	
		Ko‘rsatkichlarning qiymati							
1	Transportyor tasmaning harakat tezligi, m/s	1,66	2,22	1,66	2,22	1,66	2,22	1,66	2,22
2	Bitta uyadagi chigitlar soni n_{ch} , dona	5,86	5,08	4,56	4,03	3,55	3,16	3,46	3,15
3	Chigit uyalari orasidagi L_b bo‘ylama mosofa: M_o ‘r, cm	20,14	22,16	13,25	12,23	11,40	12,16	11,20	11,89
	$\pm\sigma$, cm	0,86	0,91	1,68	1,82	2,08	1,88	2,14	1,96
4	Chigit uylarining uzunligi: L_u M_o ‘r, cm	3,74	3,86	2,18	3,31	1,98	2,08	1,87	1,98
	$\pm\sigma$, cm	0,56	0,64	1,16	1,21	1,35	1,41	1,36	1,43

donadan 3,46 donagacha, 3,16 donadan 3,15 donagacha kamayishi sekin bo'ldi. Buni quyidagicha izohlash mumkin, ekish apparati kurakchali miqdorlagichning kurakchalari sonini ortishi bilan chigitning kurakcha bo'ylab ko'chish masofasi va tezligi ortdi va buning hisobiga ekish aniqligini oshishiga olib keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib bitta uyadagi chigitlar soni, chigit uyalari

orasidagi bo'ylama masofa hamda chigit uyalarining uzunligi agrotexnik talablar darajasida, ularning o'rtacha kvadratik chetlanishi minimal qiymatlarda chigitni agrotexnik talablar darajasida ekishi uchun seyalka ekish apparati kurakchali miqdorlagichning kurakchalari sonini kamida 8 dona bo'lishi talab etiladi.

Dissertatsiyaning **“Ishlab chiqilgan diskli ishchi organining parametrlari va ish rejimlarini maqbullashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobida ko'p omilli eksperimentlarni o'tkazishda baholash mezonni sifatida uyadagi chigitlar soni (Y_1 , dona), uyalar orasidagi masofa (Y_2 , cm) va uyalarni cho'zilganligi (Y_3 , cm) qabul qilindi.

- uyadagi chigitlar soni (Y_1 , dona)

$$Y_1 = 2,921 - 0,155X_1 - 0,117X_2 + 0,000X_3 + 0,117X_1X_1 + 0,103X_3X_3; \quad (12)$$

- uyalar orasidagi masofa (Y_2 , cm)

$$Y_2 = 15,362 - 0,842X_1 + 0,000X_2 + 0,993X_3 - 0,622X_1X_1 + 0,413X_1X_3 - 0,520X_2X_2 - 0,420X_3X_3; \quad (13)$$

- uyalarni cho'zilganligi (Y_3 , cm)

$$Y_3 = 1,117 + 0,099X_2 + 0,052X_3 + 0,051X_1X_1 - 0,036X_2X_3 + 0,0012X_3X_3; \quad (14)$$

Yuqoridagi regressiya tenglamalaridan ko'rinib turibdiki, barcha omillar baholash mezonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Demak, agregat 1,66-2,22 m/s ish tezliklarda talab darajasidagi ish sifatini ta'minlashi uchun ekish diskning aylanishlar soni 23,87-27,62 ayl/min, apparatning o'rnatish balandligi 9,02 - 9,24 cm oraliqda bo'lishi lozim.

Omillarning ushbu qiymatlarida Y_1 mezon, ya'ni uyadagi chigitlar soni 3,03 - 3,28 dona, Y_2 mezon, ya'ni uyalar orasidagi masofa 14,00 - 15,57 cm va Y_3 mezon, ya'ni uyalarni cho'zilganligi 0,95-1,12 cm oraliq'ida yotdi.

Dissertatsiyaning **“Ishlab chiqilgan takomillashtirilgan tuksiz chigitni uyalab ekadigan seyalkadan foydalanishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari”** deb nomlangan to'rtinchi bobida ishlab chiqilgan tajribaviy seyalka ekish apparati takomillashtirilgan uyalovchi apparati diskli va kurakchali ish organlari bilan jihozlangan tuksiz chigitni aniq ekadigan mexanik seyalkaning iqtisodiy samaradorligi me'yoriy hujjatlar asosida hisoblandi.

O'tkazilgan hisoblar shuni ko'rsatdiki, chigitlarni ekish uchun ishlab chiqilgan takomillashtirilgan seyalka qo'llanilsa mehnat sarfi 12,5 foizga va 1 gektar yerga sarflanadigan ekspluatatsion harajatlari 7,1 foizga kamayadi. Bunda bitta seyalkaga yillik iqtisodiy samara 6420806,4 so'mni tashkil etadi.

XULOSA

“Chigit ekish seyalkasining takomillashtirilgan ekish seksiyasi konstruksiyasini ishlab chiqish va parametrlarini asoslash” mavzusidagi texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. O'zbekiston tuproq - iqlim sharoitidan kelib chiqib chigitlarni aniq uyalab ekish va mexanik ekish apparatidan foydalanishda parametrlari yetarli darajada o'rganilmaganligi, energiya hamda resurstejamkor chigit ekish seyalkasini ishlab chiqish muhimligi, mehnat va material sarfi hamda ekspluatatsion xarajatlarni kamaytiradi.

2. Ekish apparatining konstruksiyasini yaratish hamda parametrlarini asoslashga qaratilgan maqsadli tadqiqotlarni o'tkazish dolzarbligi, hamda samarali texnik yechim va texnologik ish jarayoniga ega bo'lgan chigitni uyalab va aniq ekadigan ekish apparati ishlab chiqildi.

3. Uyalovchi apparatning kurakchasida joylashgan o'rniga qarab chigit unda turlicha harakat qilishini, uyalovchi apparat korpusining tubi va uning kurakchasi ishchi sirti bo'ylab sirpanishini ta'minlaydigan burchak tezligining minimal qiymatini aniqlash mumkinligini chigitni uyalovchi apparat korpusining tubi va kurakchasining ishchi sirti bo'ylab sirpanishini ta'minlashi uchun uyalovchi diskning burchak tezligi kamida 7,5 rad/s bo'lishi lozimligini aniqlandi.

4. $\omega_{\min}$ - eng kichik burchak tezligini α - o'rnatilish burchagi, r_0 - kurakcha ichki chetining radiusiga bog'liq ravishda o'zgarish grafiklari qurilganda, ulardan α va r_0 ni ortishi $\omega_{\min}$ ni kamayishiga, uyalovchi apparatni ko'ndalang - tik tekislikda gorizontga nisbatan α burchak ostida o'rnatilishi chigitni uchish vaqti, masofasini kamayishiga va uning ekish aniqligini oshishiga olib kelishini aniqlandi.

5. Diskning aylanishlar soni 22 - 30 ayl/min bo'lganda chigitni uyalarga tushishi, so'rish uyalari uchburchak shaklida, burchaklar uchlari yumaloq, ichida Y shaklidagi to'siq joylashgan ekish apparatida qolgan variantlarga nisbatan chigitni disk teshiklaridan ajralish kuchi yuqori bo'lishi, ekish diskining so'rish uyalari burchaklarining uchlari yumaloqlangan uchburchak shaklida va ichida Y shaklidagi to'siq joylashgan (3 - variant) da harakat tezligi 1,94 m/s dan 2,76 m/s bo'lganda ekish aniqligi me'yorida bo'ladi. Agregat 1,66 - 2,22 m/s ish tezliklarda talab darajasidagi ish sifatini ta'minlashi uchun ekish diskining aylanishlar sonini 23,86 - 27,62 ayl/min, apparatning o'rnatish balandligi 9,028 - 9,24 sm oraliqda bo'lishi, g'o'za nihollarining unib chiqish va rivojlanish dinamikasi so'rish uyalari uchlari yumaloqlangan uchburchaksimon shaklda va orasiga Y shaklidagi to'siq joylashgan ekish diskida ekilgan chigitlar boshqa ekish disklariga nisbatan yuqori bo'lishi lozim.

6. O'tkazilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan uyalovchi apparati diskli va kurakchali ish organlari bilan jixozlangan takomillashtirilgan seyalka sinovlarda belgilangan texnologik ish jarayonni ishonchli va to'liq bajardi hamda uning ish ko'rsatkichlari unga qo'yilgan agrotexnika talablarga to'liq mos keldi. Ishlab chiqilgan uyalovchi apparati diskli va kurakchali ish organlari bilan jihozlangan seyalka bir gektar erga tuksiz chigitni aniq uyalab ekishda qo'llanilganda mehnat sarfi 12,5 foizga va to'g'ridan - to'g'ri xarajatlar 7,1 foizga kamaydi va bularning hisobiga 6 420806,4 so'm ga teng yillik iqtisodiy samara olinadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.08/2025.27.12.T.03.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕННЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ АНДИЖАНСКОМ ИНСТИТУТЕ
СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА И АГРОТЕХНОЛОГИЙ**

**АНДИЖАНСКИЙ ИНСТИТУТ СЕЛЬСКОГО
ХОЗЯЙСТВА И АГРОТЕХНОЛОГИЙ**

МАМАТРАХИМОВ ОЛМОСБЕК АБДУСАЛОМОВИЧ

**РАЗРАБОТКА КОНСТРУКЦИИ И ОБОСНОВАНИЕ
ПАРАМЕТРОВ УСОВЕРШЕНСТВОВАННОЙ ВЫСЕВАЮЩЕЙ
СЕКЦИИ СЕЯЛКИ ДЛЯ ПОСЕВА ХЛОПЧАТНИКА**

**05.07.01 – Сельскохозяйственные и мелиоративные машины.
Механизация сельскохозяйственных и мелиоративных работ**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ
(PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2024.4.PhD/T5135.

Диссертация выполнена в Андижанском государственном техническом институте. Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб - странице по адресу: www.andqxai.uz и информационно - образовательном портале "ZiyoNet" (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: Кенжабоев Шукруджон Шарипович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты: Турдалиев Вохиджон Махсудович
доктор технических наук, профессор
Мамадалиев Махаммаджон Хабибуллаевич
доктор технических наук, профессор

Ведущая организация: Ферганский государственный технический университет

Защита диссертации состоится "22" 08 2026 г. в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD. 08/2025.27.12.T.03.02 при Андижанском институте сельского хозяйства и агротехнологий. (Адрес: 170600, Андижанская область, Андижанский район, деревня Ойжамол, улица Олийгох, дом 1. Тел.: (+99874) 224 - 02 - 82, факс: (+99874) 224 - 02 - 62, e - mail: andqxai@exat.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно - ресурсном центре Андижанского института сельского хозяйства и агротехнологий (регистрационный номер 66260/11).

(Адрес: 170600, Андижанская область, Андижанский район, деревня Ойжамол, улица Олийгох, дом 1. Тел.: (+99874) 224 - 02 - 82, факс: (+99874) 224 - 02 - 62, e - mail: andqxai@exat.uz).

Автореферат диссертации разослан "10" 08 2026 года.
(Протокол рассылки № 5 от "10" 08 2026 года).



А.Н. Худояров

Председатель научного совета, по присуждению учёных степеней, д.т.н. профессор

М.М.Халилов

Учёный секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, д.ф.т.н. доцент.

Б.М.Шакиров

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мире является одним из ведущих направлений использование энергосберегающих технологических средств для разработки и обоснования параметров усовершенствованной конструкции посевной секции сеялки. Объем производства хлопкового волокна в мире составляет 6,5 млн тонн в Китае, 6,4 млн тонн в Индии, 3,5 млн тонн в США, 2,4 млн тонн в Пакистане, 1,4 млн тонн в Бразилии, 1 млн тонн в Австралии, 871 тыс. тонн в Турции и 296 тыс. тонн в Туркменистане. Во многих странах, в зависимости от почвенно - климатических условий, возникает необходимость разработки и внедрения конструкции посевной секции сеялки. В этом контексте основная причина выращивания хлопка заключается в том, что хлопок является ценной технической культурой, из которой производится более 65 видов продукции. Поэтому использование сеялки имеет важное значение¹.

В мире - хлопководство остаётся важной отраслью национальной экономики. В Республике Узбекистан ведётся научно - исследовательская работа по разработке новых научно - технических решений в процессе механизации технологических операций и совершенствования технических средств в рамках комплекса мер, направленных на повышение урожайности хлопка. В этой связи одним из способов совершенствования посева семян является метод высадки в определённом количестве, имеющий ряд преимуществ перед традиционным посевом. Он снижает расход семян, обеспечивает равномерное размещение растений по всему полю и экономит трудозатраты на прореживание рассады. К сожалению, высадка в определённом количестве семян в каждую гнезду пока не получила широкого распространения. В настоящее время особое внимание уделяется повышению качества подготовки семян являются актуальными проблемами.

В нашей республике используются механические сеялки СЧХ — 4А - III и СТХ — 4А. Эти сеялки позволяют размещать семена в гнездах. Однако эти устройства имеют следующие недостатки: необходимость калибровки семян, высокий расход и повреждения, а также низкая надёжность технологического процесса, в связи с чем принимаются комплексные меры и достигаются определённые результаты. Важные задачи были поставлены в соответствии с Постановлением № 01/980 Наманганского областного сельскохозяйственного управления Министерства сельского хозяйства Республики Узбекистан от 14 ноября 2024 года². При выполнении этих задач, включая увеличение расхода семян и понесены дополнительных затрат, пневматические сеялки являются наиболее подходящими для точного посева. Однако существующие пневматические устройства не могут точно высевать семена методом гнездования в различных почвенно - климатических условиях. Причина в том, что при посеве семян в гнезда необходимо высевать 2 - 3 семени в каждое гнездо. Поскольку при групповом посеве семян в гнезда они легко

¹https://kun.uz/news/2021/09/18/мировые_гиганты_в_производстве_хлопка

²[Постановление № 01/980 Наманганского областного управления сельского хозяйства Министерства сельского хозяйства Республики Узбекистан от 14 ноября 2024 года](#)

прорастают в почву, прорастая одновременно из одного места, и легко разрушают корку, образующуюся на поверхности посеянных семян. Поэтому разработка современной энергосберегающей сеялки, подходящей для почвенно - климатических условий Узбекистана для посева семян в гнёзда в соответствии с точными стандартами, является актуальной научно - технической задачей.

В соответствии с Постановлением Президента Республики Узбекистан № ПК - 4410 от 31 июля 2019 г. «О мерах по ускоренному развитию сельскохозяйственной техники, государственной поддержке обеспечения сельскохозяйственной техникой аграрного сектора», Постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан № 766 от 21 декабря 2021 г. «О мерах по ускоренному развитию пищевой промышленности республики и полному обеспечению населения качественной продовольствием».

Постановлением № ПК - 387 от 6 октября 2022 г. «О дополнительных мерах финансовой поддержки производства сельскохозяйственной продукции», были приняты следующие меры по улучшению условий выращивания хлопка и других видов деятельности, связанных с этой деятельностью: Данная диссертационная работа в определённой степени служит выполнению задач, поставленных в нормативно - правовых документах.

Исследования соответствуют основным приоритетам развития науки и техники республики.

Данная научно - исследовательская работа соответствует приоритетному направлению развития науки и техники республики «Энергетика, энерго и ресурсо - эффективность».

